

O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida

MA‘LUMOT*



(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma‘lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (supermarket, minimarket, do‘konlardagi narxlar inobatga olinmagan).

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2020- yil 7- iyul kuni**** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Mol go‘shiti (suyaksiz go‘shidan tashqari) 38 000 so‘mdan 65 000 so‘mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, 1 kg mol go‘shiting (suyaksiz go‘shidan tashqari) minimal narxi, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”da qayd etilgan (38 000 so‘m).

Mol go‘shiting maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori” va “Miroybod dehqon bozori”da kuzatildi (65 000 so‘m).



Qo'y go'shti
39 000 so'mdan 75 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko'ra, Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori"da (39 000 so'm) ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori"da (75 000 so'm) kuzatildi.



Kartoshka
1 500 so'mdan 5 500 so'mgacha (kg)

Olib borilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, kartoshkaning minimal narxi Andijon shahrining "Yangi bozor dehqon bozori", "Andijon shahar markaziy dehqon bozori", Chirchiq shahrining "Chirchiq dehqon bozori", Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"da qayd etilgan (1 500 so'm).



Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori"da (5 500 so'm) qayd etildi.

Piyoz
750 so'mdan 3 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, piyoz mahsulotining minimal narxi Termiz shahrining "Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"da (750 so'm) ro'yxatga olindi.

Maksimal narxi esa Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori"da kuzatildi (3 000 so'm).



Sabzi

1 000 so‘mdan 5 000 so‘mgacha (kg)

Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Jizzax shahrining “Eski shahar dehqon bozori”, Farg‘ona shahrining “Markaziy dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da (1 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da (5 000 so‘m) kuzatildi.

Tuxum

5 000 so‘mdan 12 000 so‘mgacha (10 dona)



Tuxum mahsulotining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”da qayd etildi (5 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da qayd etilgan (12 000 so‘m).



Guruch

4 700 so‘mdan 18 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”da ro‘yxatga olingan (“Nukus 2” navli guruch 4 700 so‘m).



Maksimal narx esa, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da kuzatildi (“Lazer” navli guruch 18 000 so‘m).

O'simlik yog'i

8 400 so'mdan 14 500 so'mgacha (litr)



O'simlik yog'i mahsulotlarining kuzatuv natijasiga ko'ra minimal narxi Toshkent shahrining "Qo'yliq dehqon bozori"da (mahalliy paxta yog'i 8 400 so'm) kuzatildi.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori"da (kungaboqar yog'i 14 500 so'm) kuzatildi.



Shakar

5 800 so'mdan 7 000 so'mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko'ra minimal narxi Termiz shahrining "Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"da, Guliston shahrining "Guliston dehqon bozori"da, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori", "Mirobod dehqon bozori", "Eski jo'va dehqon bozori" va "Qo'yliq dehqon bozori"da (5 800 so'm) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori"da (7 000 so'm) kuzatildi.



Markaziy dehqon bozorlar kesimidagi batafsil ma'lumotlar quyidagi ko'rinishda taqdim etilgan:

**O'zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlarini to'g'risida**

MA'LUMOT*

2020 yil 7 iyul holatiga (1 kg so'zmda)

№	Bozorlar nomi		Mol go'shti (mayxiz go'shtidan tashqari)	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 L)	Shakar
1.	Nukus shahar "Nukus dehqon bozori"	min	38000	42000	3000	1000	2500	7000	4700	9000	6000
		max	50000	50000	3500	2000	3500	9000	13000	10500	6500
2.	Andijon shahar "Yangi bozor dehqon bozori"	min	45000	50000	1500	1000	1500	6000	6500	10000	6000
		max	55000	60000	4500	2000	2000	9000	14000	12000	6500
3.	Andijon shahar "Andijon shahar markaziy dehqon bozori"	min	45000	50000	1500	1000	1500	6000	7000	10000	6000
		max	55000	60000	4500	2000	2000	8000	15000	12000	6500
4.	Buxoro shahar "Buxoro markaziy dehqon bozori"	min	48000	49000	2000	1000	2000	7000	6000	9000	6000
		max	50000	52000	4000	1500	3500	8500	15000	13000	6500
5.	Jizzax shahar "Jizzax markaziy dehqon bozori"	min	45000	46000	2000	1300	1500	6500	5000	9000	6000
		max	52000	55000	3300	1500	3000	8500	13500	13000	6500
6.	Jizzax shahar "Eski shahar dehqon bozori"	min	45000	46000	2000	1000	1000	7000	5500	9500	6000
		max	52000	55000	3000	1500	2500	9000	14000	13000	6500
7.	Qarshi shahar "Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori"	min	47000	50000	2500	800	2500	6000	5000	10000	6000
		max	50000	56000	3000	1000	3000	8000	13000	12500	6500
8.	Navoiy shahar "Saxovat" bozori	min	45000	50000	2000	1000	1800	6500	7000	10000	6000
		max	50000	52000	4000	1500	2500	8000	13000	13000	6500
9.	Namangan shahar "Namangan chorsu dehqon universal bozori"	min	45000	55000	2000	800	1200	6500	7000	10500	6000
		max	48000	58000	3500	2000	2000	8500	17500	12500	6500
10.	Samarqand shahar "Siyob dehqon bozori"	min	50000	50000	2000	1000	2000	6000	7000	9000	6000
		max	55000	55000	3000	1500	3000	10000	15000	13000	6500
11.	Samarqand shahar "Temiryo'l dehqon bozori"	min	53000	53000	2500	1000	2000	8000	7000	9000	6000
		max	58000	57000	3500	1500	3000	10000	15000	13000	6500
12.	Samarqand shahar "Damariq dehqon bozori"	min	52000	52000	2000	1000	2000	7000	7000	9000	6000
		max	55000	55000	3000	1500	2500	10000	14000	13000	6500
13.	Termiz shahar "Termiz shahar dehqon oziq-ovqat bozori"	min	45000	55000	2500	1000	1500	7500	7000	10000	6000
		max	48000	57000	4000	1500	2000	8000	15000	11000	6500
14.	Termiz shahar "Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"	min	45000	55000	2000	750	1500	7000	6000	10000	5800
		max	48000	57000	3500	1500	2000	8000	15000	11000	6500
15.	Guliston shahar "Guliston dehqon bozori"	min	50000	60000	2000	800	1500	5000	5000	10000	5800
		max	53000	62000	3000	1000	2500	8000	16000	12000	6000
16.	Chirchiq shahar "Chirchiq dehqon bozori"	min	50000	55000	1500	1000	1500	6500	6500	10000	6000
		max	60000	60000	3500	1500	2000	9000	14500	13500	6000
17.	Yangiyo'l shahar "Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori"	min	45000	58000	3300	1000	1500	6000	6000	11000	6000
		max	55000	60000	4500	1500	2000	9000	15000	14000	6000
18.	Farg'ona shahar "Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori"	min	45000	50000	2000	1000	1000	7500	6000	9500	6000
		max	52000	56000	4000	1800	1500	9000	13000	12000	6400
19.	Urganch shahar "Urganch markaziy dehqon bozori"	min	40000	57000	2500	1500	1500	7500	6000	9000	6000
		max	54000	57000	4000	2500	2500	8500	14000	13000	6300
20.	Toshkent shahar "Eski jo'va dehqon bozori"	min	45000	53000	2000	1000	2000	8000	5600	8800	5800
		max	60000	70000	4500	2000	3000	11000	15000	14000	6000
21.	Toshkent shahar "Oloy dehqon bozori"	min	55000	60000	3000	1000	2000	8000	6500	10300	6000
		max	65000	75000	5500	3000	4500	12000	16000	14500	7000
22.	Toshkent shahar "Farhod dehqon bozori"***	min	42500	45000	1500	1000	1000	6000	5600	9000	5800
		max	65000	72000	4000	2500	3000	11000	15000	13500	6500
23.	Toshkent shahar "Qo'yliq dehqon bozori"***	min	42500	45000	2000	900	1500	6500	5500	8400	5800
		max	60000	70000	4000	2000	3000	11000	16000	14000	6500
24.	Toshkent shahar "Mirobod dehqon bozori"***	min	45000	39000	3500	1000	3000	7000	5600	8800	5800
		max	65000	70000	5000	3000	5000	12000	18000	14000	7000

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLAR** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.

**) Tozalik kunlari jadvaliga muvofiq ayrim bozorlarda sanitar-epidemiologik tadbirlar amalga oshirilayotganligi sababli, Toshkent shahrining "Mirobod dehqon bozori", "Qo'yliq dehqon bozori" va "Farhod dehqon bozori"da kuzatuvlar bir kun oldin o'tkazilgan.